

## O‘LIK TILLARGA MANSUB OLINMA SO‘ZLAR ETIMOLOGIYASI

**Toshboyev Bahrom Saidkulovich**

*Samarqand shahar 77-maktab, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,*

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: [bahromsaidkulovich@gmail.com](mailto:bahromsaidkulovich@gmail.com)*

*Tel: (90) 502 40 52*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o‘lik tilining umumiy xususiyatlari, fors-tojik tili bilan leksik aloqalari hamda tarixiy asarlarning tilshunoslik ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *ibroniy, suryoniy, yunon, rum tillari; fish (bis‘ho), ingliz, injil.*

X-XIII asrlar fors-tojik tarixiy asarlarlaridagi olinma so‘zlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tilimizda bunday so‘zlarning kirib kelishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi va ularning bir qismi tojik tili tarkibida hozirgacha qo‘llanilmoqda. Tarixchilar ana shunday leksik birliklarni qo‘llash bilan birga ularning kelib chiqishini o‘quvchi uchun oydinlashtirishga harakat qilishgan. Taqqoslash natijasida biz ushbu davr tarixiy asarlarida etimologiyasi keltirilgan 300 ta atrofidagi leksik birliklarni aniqlagan bo‘lsak, ulardan 200 ga yaqini olinma so‘zlar hisobiga to‘g‘ri keladi. Aytish kerakki, Abuali Bal‘amiy, Abubakr Narshaxiy, Abdulhay Gardeziy, Ibn Balxiy kabi tarixchilarning mulohazalari bu guruh so‘zlarning sharhida ham keyingi davr fan va adabiyot ahli uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Mazkur davr tarixiy asarlarida eroniy va arabcha so‘zlardan tashqari suryoniy, ibroniy (ibriy), rum, yunon, turk, hind, habash, sind, harroniy, tabariy va boshqa tillardan olingan so‘zlar ham tahlil qilingan va alohida hollarda ularning etimologiyasiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Tarixchilar tomonidan berilgan sharhlar ba‘zan o‘quvchi uchun tarjima va izohli lug‘atlarni eslatadi, ya‘ni tarixiy asarlarlar mualliflari leksik birliklarning o‘zagi va ma‘nosini izohlashda avval ularni bir tilda zikr etib, so‘ngra, boshqa tillardagi shaklini keltirishadi va bu orqali u yoki bu so‘zning nafaqat etimologiyasi, balki turli tillardagi tarjimasiga ham e‘tibor qaratishgan.

Tadqiq qilinayotgan manbalardagi olinma so‘zlar haqidagi etimologik qaydlarini quyidagi raqam va ko‘rsatkichlarda aks ettirish mumkin:

| Tillar | Etimologiyasi tahlil qilingan so‘zlar soni | Etimologiyasi tahlil qilingan barcha so‘zlarga nisbatan foizda |
|--------|--------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|
| Arab   | 99                                         | 43,4                                                           |

|          |    |     |
|----------|----|-----|
| Hind     | 16 | 7,1 |
| Ibroni   | 14 | 6,1 |
| Rum      | 4  | 1,8 |
| Suryoniy | 3  | 1,3 |
| Yunon    | 3  | 1,3 |
| Turk     | 2  | 0,9 |
| Habash   | 1  | 0,4 |

## 1-JADVAL

**Izoh:** Tarixchilar tomonidan 86 ta fors-tojikcha leksik birliklarga ham etimologik izohlar berilgan bo‘lib, ular 37,7 foiz ko‘rsatkichni tashkil etadi va 100 foizlik ko‘rsatkich kelib chiqadi. Ular olinma so‘z bo‘lmagani uchun mazkur jadvalga joylashtirilmadi.

Mualliflar va tarjimonlar tomonidan berilgan mulohazalar xususiyatlarini aniq ko‘rsatish maqsadida har bir tilga oid iqtiboslarni alohida o‘rganib chiqdik va tadqiqot davomida ularni mavjudlik davriga nisbatan “O‘lik (matruk) tillarga mansub leksik birliklar etimologiyasi”, “Jonli tillarga mansub leksik birliklar etimologiyasi” kabi guruhlariga ajratdik.

## Ibroni tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Ibroni tili 3000 yildan ortiq tarixga ega eng qadimgi tillardan biridir. U yaqin vaqtlargacha muqaddas diniy til va yahudiylar dinining amrlarini ifodalash vositasi bo‘lib kelganligi sababli, uning qadimiy yodgorliklarida diniy tushunchalarni ifodalovchi lug‘atlar, yahudiy dinining amrlari, marosimlar va tarixiy voqealarga oid so‘zlarni uchratish mumkin.

Ibn Jarir, Bal‘amiy va Gardeziy kabi tarixchilarning fikriga ko‘ra ibroniy va suryoniy tillari dunyodagi eng qadimgi tillardan bo‘lgan. Xususan, diniy rivoyatlarda suryoniy tili barcha tillarning manbasi, Odam alayhissalom va jannat ahlining tili hisoblangan. Jumladan, Ibn Jarirning “Tarix-ur-rusul va-l-muluk” asarida payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini rivoyatida to‘rt payg‘ambar: Odam, Shis, Nuh va Xanux payg‘ambarlarning tili suryoncha ekanligi qayd etilgan. [8.1-k, 119]

“Tarixi Tabariy” tarjimasining “Ibrohim va Namrud qissasi”da turli tillarning paydo bo‘lishi haqida bir rivoyat keltiriladi. Unga ko‘ra Namrud hukmronlik qilgan paytgacha butun dunyo ahlining tili suryoniy bo‘lib, bir kechada Allohning Namrud qavmiga jazo si o‘laroq 72 ta til vujudga kelgan: “O‘sha minora ertasi kuni qulab tushdi. Barcha odamlarning qo‘rquvdan hushi boshdan uchdi. Shuning talvasasida o‘z tillarini ham unutishdi. Ularning tili suryoniy edi. Ular o‘ziga kelganlarida, hamma qo‘rquv va tahlikadan bir nimalarni aytar edi. Yetmish ikki xil tilda so‘zlashar, hech biri boshqasining tilini tushunmasdi. O‘sha kundan e’tiboran dunyoda turli xil tillar ko‘paydi”. [1.1-j, 118]

Ayrim qadimgi voqealarning tafsirchilari ibroniy tilini Nimrud qavmining yetmish ikki yangi tillaridan biri deb bilishsa, boshqa bir rivoyatda Ibrohim (a.s.) hijrati davrida paydo bo'lganligi aytiladi. Bu rivoyatga ko'ra, Namrud o'z odamlarini Ibrohimni qo'lga olish uchun yuboradi. Izlovchilar Ibrohimni tanimaganligi sababli podshoh suryoniycha gapiradigan gumondorlarning hammasini hibsga olishni buyuradi. Shu asnoda Xudo Ibrohimga ibroniy tilini berib, shu yo'l bilan uni dushmanlar qo'lidan qutqardi.

Bu fikrlarning asosi rivoyatlardan boshlansa ham, zikr etilgan tarixchilar o'z da'volarida qat'iydirlar. Masalan, Ibn Jarir ibroniy tilining kelib chiqishi "o'tmoq, bormoq, kesib o'tmoq, bosib o'tmoq; daryoni kechib o'tish" ma'nolarini beruvchi "ubur" o'zagidan deb hisoblaydi va uning asosi Ibrohim Xalilullohning hijrati va Furot daryosidan o'tishi voqeasiga bog'lanadi. [8.1-k, 224]

Ushbu asarda qayd etilgan rivoyatlar ilmiy haqiqatga unchalik mos kelmasa ham, ibroniy tilining qadimiyligidan dalolat beradigan fakt sifatida ahamiyatlidir. Mazkur tarixiy asarlarda tillar yaralishi bilan bog'liq masalalar qatorida so'zlarning, ayniqsa, ibroniy tiliga mansub so'zlarning kelib chiqish tarixiga oid muhim etimologik fikrlar ham mavjud bo'lib, ularni ma'no doirasiga ko'ra quyidagi tarzda guruhlash mumkin:

- a) shaxslarning ism va laqablari: Buxtunnasr, Isroil, Muso, Yahyo;
- b) bayram va marosim nomlari: mazol, arobo, barkas, isorat, fis'h, hanka;
- d) diniy atamalar: ta'yino, hittatun, hintatun;
- e) xalq, qavm nomlari (etnonimlar): yahud, bani Isroil.

Qayd etilgan deyarli barcha leksik birliklar ibroniy tili va yahudiy dinining ko'p qo'llaniladigan so'zlari qatoriga kiradi va taniqli atama hamda ismlar bo'lib, ularning aksariyati turli o'rta asr manbalarida izohlangan. Biroq, shu bilan birga, qadimgi yahudiylarning marosim va urf-odatlarini bildiruvchi mazol, arabo, barkas, isorat, ta'yino, fis'h, hanka kabi tarixiy asarlarda tilga olingan bir qancha so'zlar boshqa manbalarda deyarli uchramaydi. Shu boisdan ham tarixchilarning ushbu turkum so'zlarga oid qaydlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, ba'zi qadimiy urf-odatlarining bugungi kunda yo'qolib ketganligi sababli ayrim leksik birliklarning unutilib, noma'lum lug'atga aylanganligi tarixchilar qaydlarining ahamiyatini yanada oshiradi. Jumladan "Zayn-ul-axbor" qaydlariga ko'ra, Arobo so'zi yahudiy bayramining nomi bo'lib, ularda "haj" tushunchasini ifodalash uchun ishlatilgan. Shu kuni yahudiylar qurbongohning (qurbonlik qilinadigan joyning) atrofini daraxt shoxlari, asosan, tol (bed) shoxlari bilan urishadi. Tarixchining fikricha, ibroniy tilida arobo tol daraxtining nomi bo'lib, bayram nomi ham shundan kelib chiqqan. Shuningdek, mazkur tarix kitobida bayramning forscha tarjimasi bedbedon shaklida keltirilgan. [6.261]

Yuqoridagi tarixiy manbaning boshqa bir o'rnida barkas marosimi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, tarixchining yozishicha barkas yahudiylarning "tabriklash" marosimidir va bu so'z arabcha barakat (barokat) so'zi bilan o'zakdosh hisoblanadi. Qayd etilgan bayramning nomlanishiga Muso alayhissalom vafotlarining o'zgarishi va kechikishi hamda bu borada u kishining duosi ijobat bo'lgani kabi barakaga bog'liqligi rivoyat qilinadi. [6.261]

"Zayn-ul-axbor"ning "Yahudiylar bayramlarining sabablari" bobida yahudiylarning bir qancha qadimiy bayramlari, ularning kelib chiqishi, sababi va bu bayramlarni o'tkazish usullari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shu jumladan, asarda isorat ham yahudiylarning ana shunday maxsus va muqaddas kunlaridan biri bo'lib, u "bayramlar yakuni" ma'nosini bildirishi va ularning oxirgi bayrami hisoblanishi xususida qaydlar mavjud. [6.261]

Fis'h (bis'ho) yahudiylar orasida patir iste'mol qilish kunlari tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladigan termin hisoblanib, rivoyatga binoan ular yetti kun davomida xamir qilmasdan faqat patir iste'moli bilan mashg'ul bo'lishgan. Bu an'ananing asosi ham "Muso va Fir'avn" qissasi bilan bog'liq bo'lib, Abdulhay Gardeziyning ma'lumotlarida bayramning nomi fis'h va bis'ho shakllarida uchrashi qayd etilgan: "Patirxo'rlik kuni. Buni bis'ho deyдилar va fis'h ham deyдилar va fis'hning tafsiri berish va ulashish (ehson qilish)dir. Bu ularning qo'y so'yish (qurbonlik) haji bo'lib, shu kuni bani Isroil shom namozi vaqtida shoshilinch Misrdan chiqib, non o'rniga unni ho'l qilib patir pishirdilar. Keyin ular yetti kun patir yeyish va xamir yemaslikka buyurildi va Fir'avndan qo'rqib, o'sha kunlarda xamirni uylaridan uzoqroq tutdilar". [6.264]

Dehxudoning "Lug'atnoma"sida so'zning ibroniy tiliga mansubligi ta'kidlanib, "ubur" (o'tish, Qizil dengizdan o'tish) ma'nosida qo'llanishi va Muso va Bani Isroil qavmining Qizil dengizni kechib o'tishi bilan bog'liqligi qayd etilgan. [2.10-j.15129] Lug'atda mazkur bayramning yahudiylarning "Muqaddas yakshanbasi" ekanligi hamda uning nasroniylar orasida ham mavjudligi (Iso alayhissalomning osmonga ko'tarilishi munosabati bilan) haqida ma'lumotlar berilgan.

Dehxudoning bu tahlillari mantiqiy asosga ega, chunki Bani Isroil xalqi orasida Fis'h bayramining paydo bo'lishi ularning Misrdan chiqishlaridan oldingi kunlardagi voqealardan biri edi. Yetti kunlik patirxo'rlikdan keyin ular Qizil dengizdan o'tishdi. Ollohning irodasi va Muso alayhissalomning mo'jizasi bilan Fir'avn va uning qavmi halok bo'ldi. Boshida patirxo'rlik Bani Isroil qavmi uchun Haq taoloning bir amr bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu amr mustahkamlanib, yahudiylarning ro'za tutishi va muqaddas bayramining asosiga aylandi: "O'sha kun sizlar uchun xotira kuni bo'lg'usidir va uni Rabbingiz uchun bayram sifatida nishonlang; uni abadiy qonun sifatida avloddan-avlodga o'tkazing". [15.1]

Yuqoridagi manbaning ma'lumotlariga ko'ra, "xamirturushsiz non (patir)" bayrami nison (nayson) oyining 14-kunida boshlanib, yana yetti kun davom etgan va o'sha sakkiz kun birgalikda "Fis'h bayrami" deb atalgan.

Dehxdoning nasroniylar orasida mazkur bayramning borligi haqidagi ma'lumoti ham o'z asosiga egadir. Chunki Iso alayhissalom Muso alayhissalomning shariatiga ergashuvchi sifatida har yili bu bayramni nishonlagan va u zotning izdoshlari uchun ham bu farz amali bo'lib qolgan. Keyinchalik nasroniylar Musoning Qonuniga bo'ysunmasliklarini ko'rsatish maqsadida xristian dinidagi bayramning mohiyatini o'zgartirishga harakat qilishdi. Iso alayhissalomning o'limi (Islom diniga ko'ra, Iso osmonga ko'tarilgan va qatl etilgan kishi Isoning hamrohlaridan biri bo'lgan) Fis'h bayramida kunlarida sodir bo'lgani sababli, nasroniylar bu bayramni Iso alayhissalomni xotirlash kuni sifatida nishonlaydilar va bu harakat bilan ular yahudiylar ta'siridan uzoqlashishni xohlaydilar.

Boshqa manbalarda ham har ikki din ahli o'rtasida mazkur bayramning borligi va u aslida yahudiylarning ro'za kunlaridan boshlanganligi tasdiqlangan. Chunonchi, Amidning "Farhangi forsi" ("Forscha lug'at") asarida "fis'h" ibroniy tiliga mansub bilinib, ma'nosi quyidagicha keltirilgan: 1) yahudiylarda, Bani Isroilning chiqishlari, qo'zg'alishlarini xotirlash; patir. 2) nasroniylarda Iso alayhissalomning vafotini xotirlash kuni; poklik bayrami. [13.1]

Bundan tashqari, "bis'ho" bilan bog'liq yana bir ma'lumot shundan iboratki, ushbu yahudiylarning patirxo'rlik bayrami manbalarda Pesax (Pesach, Pasxa) nomi bilan tilga olinadi va uning kelib chiqishi qadimgi ibroniycha "massa" so'zi va "xamirturushsiz non, patir" ma'nosidan ekanligi qayd etiladi. Biroq, boshqa bir guruh olimlar bayramning nomi pesach (lotincha pascae) so'zidan kelib chiqqanligi va "U o'tib ketdi" degan ma'noni anglatishini ta'kidlashadi va bu holatda Dehxdoning sharhi tasdiqlanadi. [11.1] Pasxaning Bis'ho, Pesax, Pesak, Paxsa, Fis'h shakllarida qo'llanilishi so'zning boshqa tillarga, ayniqsa, arab tiliga o'tish paytidagi fonetik o'zgarish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman, Gardeziy fis'h (paxsa) so'zi haqida qiziqarli fikrlarni qayd etgan va uning ma'lumotlari katta ilmiy ahamiyatga ega. Tarixchi bayram nomining arablashgan shaklini qo'llagan bo'lib, uning "berish, ato qilish, bag'ishlash" mazmundagi izohi so'zning lug'aviy ma'nosiga emas, balki uning termin sifatidagi mazmunini ifodalashga qaratilgan.

X-XIII asrlarda fors-tojik tillarida yaratilgan tarixiy asarlarda bir qancha leksik birliklarga izohlar berilgan bo'lib, ularning lingvistik mansubligi borasida tadqiqotchilar o'rtasida bahs-munozaralar mavjud. Masalan, "Tarixi Tabariy"da "tavbamizni qabul qil" ma'nosini anglatuvchi hittatun va "bug'doy ber" ma'nosini anglatuvchi hintatun so'zlari ibroniy tiliga mansub deyilsa, [1.1-j, 314] "Farhangi zaboni tojiki" ("Tojik tili lug'ati")da hinta (bug'doy) arabcha so'z sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Yahyo ismi va Isroil

laqablarini bir guruh olimlar tomonidan ibroniy tilidan, boshqa bir guruh tomonidan esa arab tiliga mansub hisoblash kabi munozarali mulohazalar mavjud.

Rum tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Dissertatsiyada biz rum tiliga mansub so'zlar birikmasi ostida lotincha lug'at elementlarini nazarda tutganmiz. Fors-tojik tili bilan rum tili o'rtasidagi munosabatlar juda uzoq tarixga ega. Tarixiy manbalar materiallaridan ko'rinib turibdiki, bunday so'zlarning tilimizga yo'l topishi miloddan avvalgi mingyillikka borib taqaladi. Chunonchi, biz tahlil qilayotgan tarixiy asarlarlarda Arok, Rum, Artabun (izohlari toponim va antroponimlar boblarida) va nayson so'zlari rum tiliga xos leksik birliklar sifatida qayd etilgan. Ular orasidan nayson oyi haqida turli fikrlar mavjud. Masalan, "Farhangi zaboni tojiki" ("Tojik tili lug'ati")da u suryoniy taqvimining yettinchi oyi deb talqin qilingan [9.1-j, 828] bo'lsa, "G'iyos-ul-lug'ot"da rumlarning yettinchi oyning nomi sifatida izohlangan. Bundan tashqari, lug'atshunos Muhammad G'iyosuddin "nayson yomg'iri" birikmasining paydo bo'lishini mazkur so'z bilan bog'laydi va bu mavsum bizning taqvimimizda taxminan aprel oyiga to'g'ri keladi. [5.2-j, 363]

Dehxudoning "Lug'atnoma"sida nayson so'zi ham suryoniy va ham rum tilida borligi qayd etilgan. Biz bu borada so'zning rum tiliga mansubligi va keyinchalik suryoniy tiliga kirib qolgani haqidagi dalilni to'g'ri deb bilamiz.

Suryoniy tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Suryoniy tili oromiy tillar guruhining o'lik tili hisoblanadi. U eramizning I asridan boshlab Yaqin Sharqning adabiy tili sifatida qo'llanila boshlandi. Milodiy VIII asr oxirida arab tili keng tarqalib, suryoniy tilining tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi. Qo'llanish muddatida bu tildan boshqa tillarga, jumladan, fors-tojik tillariga ham bir qancha lug'at elementlari olinma so'z sifatida qabul qilinib, tarixiy asarlar mualliflari ularning ayrimlari xususida o'z mulohazalarini bildirishgan.

X-XIII asrlar islom dinining taraqqiy etgan davri bo'lganligi sababli, tabiiyki, hayotning har bir jabhasida diniy g'oyalarning ta'siri sezilarli bo'lgan. Xususan, tarixchilar tarixiy voqealarni jamlashda, ayniqsa, afsonaviy davrlar tarixini bayon etishda diniy e'tiqod va rivoyatlarga qattiq amal qilishgan. Shunday qarashlardan biri suryoniy tilini birinchi va oxirgi til (qabr ahlinig tili) deb hisoblash edi. Bu nuqtayi nazar keyingi tadqiqotchilar tomonidan qisman qo'llab-quvvatlandi, ya'ni shu darajadagi, suryoniy tili dunyodagi eng qadimgi tillardan biri bo'lgan.

Tadqiq qilingan tarixiy asarlarda kis, Masih, Shis so'zlari qadimgi suryoniy tiliga mansubligi zikr etilgan. Shulardan kis so'zining lingvistik mansubligi "Zayn-ul-axbor"da keltirilgan bo'lib, tarixchining ta'kidlashicha ushbu suryoniy tiliga mansub so'z "o'ldirish,



so'yish" ma'nosini bildiradi. Muallif so'zning qo'llanishi sababini Fir'avn qavmining suvda g'arq bo'lishi va o'limi bilan bog'liq hisoblaydi. [6.265]

Yunon tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi

Ma'lumki, tojik tilining lug'at tarkibiga yunoncha so'zlarning kirib kelishi juda qadimiy tarixga ega bo'lib, ulardan ba'zilarining o'rta fors yoki pahlaviy tillari davridayoq qo'llanganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, dunyoning ba'zi tillariga bevosita va boshqa bir guruh tillarga o'rta lotin tili orqali kirgan yunoncha kelib chiqishli yoqut so'zi o'rta fors yoki pahlaviy matnlarida yokand shaklida ishlatilgan. [3.4-t.570] Oradan ma'lum vaqt o'tgach, xuddi shu leksik birlik ajdodlarimiz tiliga arab tili orqali yoqut shaklida kirib kelgan. Aytish kerakki, tilimiz tarkibidagi yunoncha so'zlar X-XIII asrlar tarixiy asarlarlari mualliflarining nazaridan chetda qolmagan. Ular tahlil qilgan bu turdagi leksik birliklarga Iskandar (izohi antroponimlar bobida), Inglyun va Qustantiniya (izohi toponimlar bobida) so'zlari misol bo'la oladi.

Inglyun xristian dinining muqaddas kitobi Injilning boshqa nomidir. Abdulhay Gardeziyning qaydlariga ko'ra, Injil Inglyunning muarrab (arablashgan) shaklidir: "U "Inglyun"ning muarrabidir va bu haqda to'liq Masihning xabarida bor". [6.269]

Tarixchining tahliliga ko'ra, nasroniylikning muqaddas kitobi Iso alayhissalom zamonlaridan keyin to'rtta nisbatan sahih nusxada Matto (ibroniycha), Markus (rum), Yuhanno (yunoncha) va Luqo (yunoncha) tomonidan kitobat qilinib, ushbu to'rt nusxaning umumiy nomi Inglyun deb e'tirof etilgan.

Injil yunoncha euangelion so'zidan kelib chiqqan va "xushxabar" degan ma'noni anglatadi. Injil so'zining ingliyundan kelib chiqqani va inglyun nasroniylik muqaddas kitobining barcha to'rt nusxalarining umumiy nomi ekanligi haqidagi "Zayn-ul-axbor"ning ma'lumotlari lingvistik va diniy tahlillar bilan isbotlangan. [12.1]

Mazkur tahlillardan yunoncha so'zning tilimizga kirib kelishi uzoq tarixga ega ekani, bunda goho ushbu so'zlar to'g'ridan to'g'ri, ba'zida esa arab tili orqali yo'l topganini ko'rish mumkin. Bu borada tilshunos olim H.Majidov shunday yozadi: "Bir guruh yunoncha o'zaklar (so'zlar) tojik tiliga faqat rus tili orqali emas, balki uzoq o'tmishda arab tili orqali ham kirib kelgan. Binobarin, bunday atamalarning ayrimlari hozirgi tojik adabiy tilida ba'zan bir-biridan butunlay farq qiladigan ikki xilda uchraydi. Yunoncha qirot (keration "temir tanga" so'zidan "javohirlar og'irligi o'lchovi" ma'nosida), musiqa (mousike – "musiqiy san'at"), faylasuf (philosopos – "bilimdon donishmand"), iqlim (climatos), molixuliyo (melas – "qora" va chole – "zarda" o'zaklaridan bo'lib, "vahima, savdoiylik va xayolkashlikka sabab bo'ladigan ruhiy kasallik" ma'nosida) kabi so'zlar allaqachon o'rta asrlarda arab tili orqali qabul qilingan edi. Ayni shu o'zaklar karat, muziqa, filosof, melanxoliya shakllarida rus tili orqali qayta o'zlashtirildi". [10.127]

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, X-XIII asrlar fors-tojik tarixchilarining yuqorida tilga olingan leksik birliklarining yunon tiliga mansub ekanligi haqidagi etimologik tahlillari ilmiy haqiqatga mos keladi.

### ADABIYOTLAR

1. Bal’ami A. Ta’rixu Tabari. 2 jildda – Tehron.: Zamon, 2001 y.
2. Dehxudo A. Lug’atnoma. j.10 13930-15482 s.; A. Dehxudo. -Tehron: Muassisai intishorot va chopi Donishgohi Tehron, 1373 hij.
3. Fasmer M. Etimologicheskii slovar russkogo yazika [Tekst] / Fasmer M. T.1. – 561 s.; T.2. – 671s.; T.3. – 830 s.; T.4. – 860 s – M.: Progress,1986-1987.
4. G’afurov B. Tojikon. 1-2-kitob. – Dushanbe, 2008 y.
5. G’iyosuddin M. G’iyos-ul-lug’ot. 1-2-jildlar. –Dushanbe.: Adib, 1987, 1988 y.
6. Gardezi A. Zayn u-l-axbor. – Dushanbe.: Buxoro, 2014 y.
7. Rastorgueva S.V., Yedelman D.I. Etimologicheskii slovar iranskix yazikov. 1-6-tomlar. – Moskva.: Vostochnaya literatura, 2000-2015 y.
8. Tabariy, Abuja’far Muhammad ibni Jarir. Ta’rixu-r-rusuli va-l-muluk (tarjuma az arabiy, mutarjim Abulqosimi Poyanda). Bo tahriri umumii Nurmuhammad Amirshohiy. Kitobi 1 (J.-hoi 1, 2 va avvali j. 3). – Dushanbe: Sarredaksiyai ilmii Ensiklopediyai Millii Tojik, 2014. – 756 s. Kitobi 2 (oxiri j. 3 va j. 4). – Dushanbe: Sarredaksiyai ilmii Ensiklopediyai Millii Tojik, 2014. – 762 s.
9. Zehni T., Kapranov A. va digaron. Farhangi zaboni tojiki. 1-2-jild. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969 y.
10. Majidov H. Zaboni adabii muosiri tojik. Lug’atshinosi / H. Majidov. – Dushanbe: Devashtich, 2007. – J.1. – S. 127.
11. <https://alsina-sa.com/tg/sobre-religion/cual-es-el-significado-de-la-pascua-judia.html>
12. <https://gomus.info/encyclopedia/cat-i/injil-uz/>
13. <https://vazhaju.tj/word/%D1%84%D0%B8%D1%81%D2%B3/Gdm2yZn>
14. <https://www.jw.org/tg/%D0%BA%D0%B8%D1%82%D0%BE%D0%B1%D1%85%D0%BE%D0%BD%D0%B0/%D0%BC%D0%B0%D2%B7%D0%B0%D0%BB%D0%BB%D0%B0%D2%B3%D0%BE/w20131215/%D1%84%D0%B8%D1%81%D2%B3-%D1%80%D3%AF%D0%B7%D0%B8-%D1%91%D0%B4%D0%B3%D0%BE%D1%80%D3%A3/>
15. <https://www.jw.org/tg/%D0%BA%D0%B8%D1%82%D0%BE%D0%B1%D1%85%D0%BE%D0%BD%D0%B0/%D0%BC%D0%B0%D2%B7%D0>